

SHARTNOMA № 15

Oltinko'l tumani

«15» 01 2022 yil

Bizlarkim quyida imzo chekib o'zaro shartnoma tuzuvchilar bir tomonidan «Gold Grow Pharma» MCHJ nomidan R.Xaydarov kelgusida «Ta'minotchi» deb nomlanadi va ikkinchi tomonidan 6. Kopek kelgusida «Xaridor» deb nomlanib, quyidagi mazmunda shartnoma tuzdik.

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. «Ta'minotchi» «Xaridor»ning talabnomasi bilan zarur dori-darmonlar, tibbiy ash'yolarni sotadi. «Xaridor» esa olgan mahsulotlari uchun to'lovni «Ta'minotchi»ning bankdagi tegishli xisob raqamiga kelishilgan muddatda o'tkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2.

(so'mda, QQS bilan)

Nº	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Umumiy qiymati
1	<i>Streptase-crepsol</i>		<i>napo 10000</i>	<i>2800</i>	<i>28000000</i>
2					
3					
4					
5					
6					
7					
Jami					<i>28000000</i>

Shartnomaning umumiy summasi: 28000000 so'm.

2. MAHSULOTNING SIFATI

2.1 «Ta'minotchi» «Xaridor»ga O'zbekiston Respublikasida Farmokologik ro'yhatdan o'tgan, tibbiyotga ishlatalishga ruhsat etilgan sifat, markirovka, o'ramlar farmatsevtik va texnik talablariga javob beradigan xamda sifat sertifikati yoki taxlil bayoniga ega bo'lgan dori-darmonlar va tibbiy mahsulotlarni sotadi.

3. SHARTNOMA QIYMATI VA XISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Xisob kitob «Xaridor» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.2. Shartnoma kuchga kirib, tegishli G'aznachilik tizimidan ro'yhatdan o'tgandan so'ng «Xaridor» mablag'ni 5 (besh) bank ish kunida yetkazib beriladigan mahsulotlarning umumiy summasini 30% ni oldindan avans tariqasida «Ta'minotchi» ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

3.3. «Ta'minotchi» shartnomaning 5.3. bandiga asosan xar oyda belgilangan miqdorda maxsulotni yetkazib beradi.

3.4. «Xaridor» «Ta'minotchi» tomonidan jadval asosida yetkazib berilgan maxsulotni 70% to'lovini maxsulot yetkazib berilgan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni davomida «Ta'minotchi»ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

3.5. Shartnomada ko'rsatilgan narxlar bozor munosabatlardan kelib chiqqan xolda, xom-ashyo narxlarini hamda xom-ashyolarning yetkazib berilishi xarajatlarini ortishi, shuningdek xorijiy valyutalarning so'mga nisbatan kurslarini ko'tarilishi natijasida, xar 3 (uch) oyda bir marotaba shartnomada ko'rsatilgan mahsulotlar narxlari qayta ko'rib chiqiladi va maxsulot narxlari o'zgartiriladi. Narxdagi o'zgarishlar tomonlar o'rtasida tasdiqlangan qo'shimcha kelishuv orqali amalga oshiriladi.

4. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1 «Ta'minotchi» quyidagi huquqlarga ega.

- Yetkazib beriladigan mahsulotni «Xaridor» tomonidan oldindan xaq to'lanishi va tegishli qonun xujjalarda belgilangan tartibda va xajmda uzil-kesil xisob kitob qilishni byudjet tashkilotidan talab qilish;

- Berilgan buyurtmaga muvofiq yetkazib beriladigan mahsulotni qabul qilishni asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini byudjet tashkilotidan talab qilish;

4.2. «Ta'minotchi» quyidagilarga majbur:

- «Xaridor»ga mahsulotni mazkur shartnomaga asosan belgilangan muddatlarda sifat va miqdorida yetkazib berish;

- Agar mahsulotni yetkazib beruvchi shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'yan bo'lsa byudjet tashkilotning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklar 3-kun muddatda bepul tuzatib berish;

4.3. «Xaridor» ning huquqlari:

- Yetkazib beruvchidan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ xujjalalar bilan ta'minlashni talab qilish;

- Yetkazib beruvchidan mazkur shartnoma asosida beriladigan buyurtmaga muvofiq tegishli sifat assortimentagi mahsulotni yetkazib berishini talab qilish;

- Mazkur shartnoma shartlari bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini yetkazib beruvchidan talab qilish;

4.4. «Xaridor» majburiyatlar:

- O'z buyurtmasi bo'yicha yetkazib berilgan mahsulotni mazkur shartnomaga muvofik qabul qilish;